

AYIRUV-CHEGARALOV YUKLAMALARINI O‘QITISH BO‘YICHA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI

JDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
magistranti Xaydarova Manzura
dots v.b. Jumayeva Feruza Uralovna

Mavzu: Ayiruv – chegaralov yuklamalari (7-sinf, III-chorak)

Tashkiliy qism:

- 1) Salomlashish
- 2) Davomatni aniqlash
- 3) Sinf tozaligiga e’tibor berish

Darsning maqsadi:

- a) ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga ayiruv – chegaralov yuklamalari haqida batafsil ma’lumot berish.
- b) tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda o‘zaro hamjihatlik, bir yoqadan bosh chiqarib ishlash hissini shakllantirish va sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining insoniylik burchlarini bilishi, unga rioya qilish kompetensiyasi.
- c) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini yuklamalarni o‘qitish asosida rivojlantirish.

Darsning usuli: ma’ruza, “Davom ettir”, “Boy va omadli bo‘lishni istaysizmi?”, metodi.

Darsning jihozi: ko‘rgazmali vosita, darslik, monitor, tarqatma materiallar.

Darsning borishi: uy vazifasi so‘raladi. 235-mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar – mi, -chi, ham, nahotki yuklamalarini qatnashtirib gaplar tuzishi va yuklamalarning qanday ma’no yuklayotganini izohlab berishi kerak edi. O‘quvchilar daftarlarini ochib tuzib kelgan gaplarin o‘qib, izohlab berishadi.

1-o‘quvchi: Bugun kelganlarning barchasi faol ishtirok etdimi? (so‘roq ma’nosi).

2-o‘quvchi: Shokir qo‘lini sovunlab yuvdi. Sen-chi? (so‘roq ma’nosi).

3-o`quvchi: Uchquduq ham menga ona shahrimday (kuchaytiruv ma`nosi).

4-o`quvchi: Qo`yinge, nahotki siz shunday insonsiz! (kuchaytiruv ma`nosi).

O`tilgan mavzuni yana bir bor mustahkamlash maqsadida “Davom ettir” o`yini o`tkaziladi. Bu topshiriqda o`quvchilar “Charxpalak” texnologiyasi asosid matn yaratadilar. Dastlab sinf o`quvchilari uch guruhda bo`lib olinadi. Har bir guruhda o`qituvchi tomonidan ertak boshlanmasi tushirilgan varaqlar tarqatiladi. Ular ertakni davom ettirib bittadan gap yozadilar va keyingi o`quvchiga o`tkazadilar. Har bir o`quvchi o`z yozgan gapi tarkibida so`roq-taajub yuklamalarini qo`llashi va mazmuniy birlikni saqlashi topshiriqning eng muhim sharti qilib ko`rsatiladi. Matndagi gaplar soni 7-8 taga yetganda charxpalak to`xtatiladi va varaqlar guruhlar o`rtasida almashiladi. Har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqib, matnlarni o`qib matn tarkibidagi yuklamalarni aniqlaydilar. Bu topshiriq o`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini, so`zlardan unumli va o`rinli foydalanish malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Ertak matni. Bir bor ekan, bir yo`q ekan. Shunday bir go`zal mamlakatda odillikda yagona podshoh bor ekan. Podshohning bir-biridan jasur uch o`g`li bor ekan. Bir kuni podshoh o`g`illarini yoniga chaqirib, shunday debdi...

Guruhlarning ballari e`lon qilinadi. Shundan so`ng doskaga “Ayiruv-chegaralov yuklamalari” mavzusi yoziladi. O`qituvchi o`quvchilarning diqqatini mavzuga qaratish uchun quyidagicha ko`rinishdagi slaydni monitorga chiqaradi. Shu bilan birga ayiruv-chegaralov yuklamalari haqidagi ma`lumotlarni og`zaki ravishda bayon qiladi. O`zi qo`shilayotgan so`zning ma`nosini ayirib, cheragalab keluvchi faqat, - gina, (-kina, - qina), atigi, xolos, yolg`iz yuklamalari ayiruv-chegaralov yuklamalari hisoblanadi. Masalan: U bir**gina** qalami oppoq qog`oz bilan tillashdi (S.Ahmad). Siz bu gapingiz bilan **faqat** o`zingizni o`ylayotganga o`xshaysiz. Bu jangda qatnashganlarning **atigi** yigirma foizigina tirik qoldi. Topganlarim shu **xolos**, qolganlarini topa olmadim. Bolajonim, **yolg`iz** sen meni dunyo tashvishlaridan biroz bo`lsada chalg`itasan.

Atigi, xolos, yolg'iz, -gina (-kina- qina) faqat ayiruv-chegaralov yuklamalari
Ayiruv-chegaralov yuklamalari ham o'z o'rnida sof va vazifadosh yuklmalarga bo'linadi.

Eslatma: -gina, (-kina, -qina) shakllari otga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlash uchun ishlatiladi. **Masalan:** Yolg'iz onaginam meni tushundi. Shu matohnigina oldingmi, boshqa narsa so'ramadingmi?

Slaydlar asosida mavzu tushuntirilgach darslikdagi topshiriqlarni bajarishga kirishiladi. **Mustahkamlash: 1-topshiriq:** Berilgan gapdagi ajratib ko'rsatib so'z va qo'shimchanning vazifasi aytiladi. Faqat daraxtlar, ariqlar ko'priklargina tanish. Ixtiyoriy guruhdan bir o'quvchi chiqadi va javob beradi. O'quvchining javobiga o'qituvchi ham qo'shimcha ma'lumot kiritib o'tadi. Ushbu gapda faqat so'zi yuklama vazifasida, -gina qo'shimchasi otga qo'shilib kelganligi bois ta'kid ma'nosini ifodalash vazifasida kelgan. O'quvchiga ball beriladi.

2-topshiriq. Faqat va –gina (-kina, -qina) yuklamalarining ma'nolarini tushuntirish. Ikkinchi guruhdan bir o'quvchi chiqib javob beradi. O'qituvchi o'quvchining javobiga yana aniqlik kiritib to'ldirib boradi. Faqat yordamchisi so'z yuklama hisoblanadi. U sof yuklama gap bo'laklarining ma'nosini ayirib, chegaralab ko'rsatadi. **Masalan:** Faqat seni taniyman. Bu gapda faqat yuklamasi seni so'zining ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajargan. –gina (-kina, -qina) yuklamalari qo'shimcha ko'rinishidagi vazifadosh yuklama bo'lganligi bois gap tarkibida turli ma'nolarni ifodalaydi. Bu qo'shimchalar otga qo'shilganda kichraytirish, erkalash ta'kidlash (singilginam) ma'nosini, yuklama vazifasida kelib, ayiruv, chegaralov ma'nosida qo'llanadi. **Masalan:** Siz bu ishni bajarsangizgina mukofotga munosib topilasiz.

O'quvchiga ball beriladi. Keyingi mashqni bajarishga kirishishdan oldin o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun noan'anaviy "Boy va omadli bo'lishni istaysizmi?" metodidan foydalanamiz. Bunda o'qituvchi mevalarga yozilgan kitoblarning nomini teskari o'girgan holda oldindan tayyorlab kelgan daraxt shoxlariga ilib chiqadi va har bir guruhdan bittadan o'quvchilarni chiqarib, ularga bittadan savol yozilgan

kartochkalar beradi. Savolga to'g'ri javob bergan o'quvchi daraxt shohlaridan bitta mevani uzish va meva ortiga yozilgan kitobning nomini bilish, do'stlariga o'qib eshittirish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa daraxtdagi mevalar tugaguncha bu o'yin davom ettiriladi. Qaysi guruh eng ko'p meva yig'sa, shu guruh eng boy va omadli guruh hisoblanadi. Bu usul orqali o'quvchilarda o'tilgan mavzuni yana bir bor mustahkamlash va qiziqarli ma'lumotlarni bilib olish imkoniyatini yaratish maqsad qilib olingan. Tarqatma kartochkalarga yozilgan savollar:

- 1) Ayiruv-chegaralov yuklamalari deb qanday yuklamalarga aytiladi?
- 2) Sof yuklamalarga misol keltiring?
- 3) Berilgan gapda -gina qo'shimchasi qanday ma'noni anglatgan? Mening jajjigina singilcham bor.
- 4) So'z yuklamalariga misol keltiring?
- 5) Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalarga qaysi yuklamalar kiradi?
- 6) -mi so'roq yuklamasi qanday yoziladi?
- 7) Qaysi yuklamalar o'zi qo'shib kelayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.
- 8) Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas. Ushbu maqoldagi **yolg'iz** so'zi qanday vazifada qo'llangan?
- 9) Yolg'iz sen menga keraksan. Ushbu gapda **yolg'iz** so'zi qanday vazifani bajarib kelgan?

O'quvchilarga ball beriladi.

236-mashq. Matnni o'qib, ayiruv-chegaralov yuklamalari qatnashgan gaplar ko'chirib yoziladi va yuklamalarning tagiga chiziladi. Doskaga guruhlardan o'quvchilar chiqariladi.

1) Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin. 2. Vaholanki, til davlat miqiyosida qo'llanilsagina milliy til bo'lib qoladi va ravnaq topadi. 3. Xotin, bu gaplar kitobdagina bor, **xolos**, hayot boshqa.

Doskada bajarganlarga ball beriladi.

237-mashq. Gaplarni yozib, yuklamalarni topib ma'nosini izohlash. Nisbatan passivroq ishtirok etayotgan o'quvchilardan har bir guruhdan chiqariladi.

1) U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani terlab ketgan, faqat buni o'zi payqamas hatto bir so'zni takrorlardi: "Menga desa otib yubormaydimi?" (ayirib ko'rsatish ma'nosi). 2) "Haqiqatni, faqat haqiqatni aytaman" deb ond iching. (ayirib ko'rsatish ma'nosi). 3) Ulardan faqat birga oldirilgan sur'atgina yodgor qoladi, xolos. (-gina ta'kid ma'nosida, xolos ayiruv-chegaralov ma'nosida) 4) Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, egnidagi chakmoni – hammasi qordek oppoq edi. (-gina ta'kid ma'nosida). 5) Suvchilarning yuzin silab o't, faqat yaxshi tilak tilab o't. (ayiruv-chegaralov ma'nosida).

O'quvchilarga ball beriladi.

238-mashq. Faqat –gina, -kina, xolos yuklamalarini qatnashtirib gaplar tuzish.

1) Inson hayoti davomida tinmay harakat va izlanishda bo'lsagina, maqsadiga albatta erishadi. 2) Bunday maslahatlarning zamirida, **faqat** manfaat yotadi. 3) Bola beshikk**in**ada tinch uxlaydi, yerda emas. 4) Boradiganlar shular xolos, boshqalari yo`q.

Daftarlari tekshirilib ball beriladi.

239-mashq. Nuqtalar o'rniga mos yuklamalarni qo'yib gaplarni ko'chirish. Har bir guruhda bittadan o'quvchi chiqariladi. 1. Faqat jimlik tilaydi yurak, sizdan bugun birgina o'tinch: yolg'iz qo'ying meni do'stlarim. Charchaganman, orom olayin, 2. U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi. 3. Yo`q, bekam, men faqat biz diqqat bilan hamma yoqni qidirypmiz, dedim. 4. Bahor ham, umr ham o'tar, ehtimol, faqat sen dunyoda mangu qolursan.

Mashqni doskada bajargan o'quvchilarga ball beriladi.

Uyga vazifa qilib 240-mashqdagi -gina yuklamasi va -gina erkalash qo'shimchasini bir-biridan farqlovchi so'zlar qatnashgan gaplar yozib, ularning farqini tushuntirish topshirig'i beriladi. Dars yakunida o'quvchilar tomonidan yig'ilgan ballar hisoblanib, eng faol ishtirok etgan guruh va eng faol o'quvchilar

nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, baholari elektron jurnal (kunalik.com) ga qo'yiladi. Bu tarzdagi darslarni tashkil qilish, dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'qituvchi va o'quvchining tajribasi oshishiga, bolani to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga, eng muhimi olgan bilimlarini hayotiy amaliyotda o'rinli qo'llay olish, undan samarali foydalanish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qilishi lozim. Zero har bir darsda o'zlashtirilgan birgina axborot o'quvchining kelajak poydevori uchun bitta mustahkam asos vazifasini o'taydi.